



INTERFAOL TA'LIM MOHIYATI

Elmurodov Ahmadjon Qurbonovich

Pastdarg'om tumani 107 – maktab o'qituvchisi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7825534>

ARTICLE INFO

Received: 05th April 2023

Accepted: 12th April 2023

Online: 13th April 2023

KEY WORDS

Interfaol, zamonaviy pedagogik texnologiya, ta'lim – tarbiya, metod, usul, samaradorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari, o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qilishi, bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda alohida o'rin tutuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Interfaol metodlar deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Interfaol usullar o'quvchini o'quv-tarbiya jarayonining chinakam subyektiga aylantirib, uni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu usullar o'quvchilarning fikrini uyg'otadi, ular ta'lim kechimining obykti sifatida o'zlari o'qibgina qolmay, bu jarayonning ijrochilari sifatida bir-birlarini o'qitish va tarbiyalash bilan ham shug'ullanishadi.

O'zbek pedagogika ilmi va amaliyotiga interfaol usul tushunchasining kirib kelishi ham juda uzoq tarixga ega emas. Binobarin, hozircha bu boradagi ilmiy ishlarning sanog'i unchalik ko'p bo'lmasligi tabiiy. Lekin dunyo pedagogikasida XX asr boshlarida paydo bo'lib, o'sha asrning oltmishinchi yillarida shakllangan va asr oxirlarida bizga kirib kela boshlagan interfaol usullardan foydalanishning u yoki bu jihatlari borasida bir qator tadqiqot ishlari qilingan. D.Dyui¹, E.Bern², S.Zanko³, V.V.Petrusinskiy⁴, A.Kazakov, A.YAkushev⁵, M.Klarin²⁵,

1 Дьюи Д. Образование и демократия. –М.: 2000.

2 Берн Э. Игры, в которые играют люди. Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры. Психология человеческой судьбы. –М.: 1988.

3 Занько С. Ф. и др. Игра и ученье. –М.: 1992.

4 Игры для интенсивного обучения / Под ред. В. В. Петрусинского. -Москва: «Прометей», 1991; Игры – обучение, тренинг, досуг... / Под ред. В. В. Петрусинского. –М.: «Прометей», 1994.



V.Guzeev²⁶, G.Selevko²⁷, A.Gin va boshqa chet ellik olimlar o'z tadqiqotlarida turli davrlarda turli ta'lim muassasalarida interfaol usullarni qo'llash yo'llari to'g'risida o'z qarashlarini bildirganlar.

O'zbekistonlik olimlar ham o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish yo'llari to'g'risida bir qator izlanishlarni amalga oshirishgan. Ayniqsa, B.Farberman, D.Safin, R.Musina, Q.Husanboyeva, Sh.Yusupova, S.Odilova, F.Egamberdieva, Q.Qiyasova, M.Jumaniyozova, A.Hayitov, N.Boymurodov kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash muammosining turli jihatlariga to'xtalishgan.

Bugunning odamiga qachondir biror o'quv yurtida egallab olingan bilim, ko'nikma va malakalar yetarli emasligi, odam muttasil ravishda takomillashib, aqlan va ma'nan tinimsiz barkamollashib, to'xtovsiz paydo bo'ladigan muammolarni yenga borsagina risoladagiday hayot kechira olishi mumkinligi allaqachon o'z isbotini topgan. Buning uchun odam o'z ustida ishlaydigan, mustaqil o'qib, izlanadigan bo'lishi kerak. Shu sababli har bir shaxs bolaligidan mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topadigan qilib tarbiyalanishi zarur. Dunyo miqyosida o'qitish jarayonini interfaol usullarda tashkil etish ehtiyoji shundan tug'ilgan.

Har qanday ta'limning yo'nalishi va samaradorligi u suyanadigan falsafiy asosga bog'liqdir. Prof. Q.Yo'ldoshev: ***"Insoniyat tarixi bilan teng bo'lgan pedagogik amaliyot, umumlashtirib olganda, uch falsafiy yo'nalish asosida uyushtirilib kelinayotir. Bu falsafiy yo'nalishlar ...transmissiya, transformatsiya, transaksiya tarzida nomlanadi"***, – deb yozadi²⁸. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim transmissiya falsafasi asosida tashkil etilganda o'qituvchi o'qitgan, o'quvchilar u bergan bilimlarni o'zlashtirganlar. Insoniyat egallagan bilimlar ko'payib, ularni yosh avlodga shu holicha o'rgatish mushkul bo'lib qolgach, ta'lim jarayoni transformatsiya falsafasiga tayanib tashkil etiladigan bo'ldi va endi maktablarda u yoki bu fanning asoslarini o'rgatish yo'lga qo'yildi. Bu bosqichda o'qituvchi fan bilan o'quvchilar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi –transformator vazifasini o'tab, odamlar hayoti uchun fanlarning asoslarini yoshlarga singdiradi. Aytilgan har ikki pedagogik falsafa ham ta'lim jarayonining subyekti o'qituvchi, bu kechimdagi asosiy qadriyat esa egallanadigan bilim deb hisoblagan. Endilikda har qanday kuchli xotira ham cheksiz olamdagi barcha qonuniyatlarni eslab qololmaydi.

Bundan tashqari, xotira yordamida o'zlashtiriladigan bilimlar standart vaziyatlar uchungina yaroqli bo'ladi. Ne azobda o'zlashtirilgan bu bilimlar nostandart vaziyatda mutlaqo ish bermay qolishi mumkin. Hayot esa hech qachon standartga tushmaydi. Shuning uchun ham yosh avlodni o'zi mustaqil fikrlaydigan, nostandart vaziyatlar, chigal hayotiy holatlarda eng to'g'ri yechimni topish yo'lida izlanadigan qilib o'qitish bugungi ta'lim tizimidagi eng muhim masaladir. Shu holat XX asrning ikkinchi yarmida pedagogikani transaksiya falsafasi asosida tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu falsafada bilim emas, o'quvchi shaxsi bosh qadriyat sanaladi. Transaksiyaga ko'ra, bilim berilmaydi, balki o'quvchilarning xatti-harakat va intilishlari natijasida ularning o'zlari tomonidan o'zlashtiriladi. Shuningdek, unda o'quvchi o'qitish jarayonini o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiradigan subyekt sanaladi.

5 Казаков А. Н., Якушев А. О. Логика-1 Парадоксология. Пособие для учащихся ст. классов лицеев, колледжей и гимназий. –М.: АО «Аспект Пресс», 1994. -256 с.



Transaksiya bir makon va zamonda yashab turgan har bir odam olamni o'z nazari bilan ko'radi, o'zicha tushunadi, demak, u olam hodisalarini ham o'zicha o'rganishi kerak, degan konstruktiv pedagogikani yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ilm-u fan imkoniyatlaridan ezgu maqsadlar yo'lida foydalanadigan, olam hodisalarini bilishga ehtiyoj tuyadigan va uning yo'llarini izlaydigan shaxslarni shakllantirish lozim. Mana shu holat ta'lim jarayonida interfaol metodlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi⁶.

Interaktiv usullar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o'quvchilarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Unda o'quvchilar xuddi o'qituvchi singari ta'limning subyekt, ya'ni ijrochisi bo'lishi, ta'lim olish ularning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Interfaol metodlarning asosida o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi ishlashigina emas, balki ta'lim olayotgan har bir o'quvchining bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi turadi.

"Interfaol" atamasi lotincha "inter akt" so'z birikmasidan olingan bo'lib, "inter" – o'zaro, birgalikda va "akt" – faoliyat ma'nolarini anglatadi⁷. Interfaol metodlar ta'lim mazmuni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning bir-birlari bilan birgalikdagi faoliyati natijasida o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi. Interfaol metodlardan foydalanib bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar o'quvchilarni o'qitishga emas, balki bilimlarni ularning o'zlari tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratiladi. Bu usulda o'quvchilar materialni buyurilganiday emas, o'zlari xohlaganday o'zlashtiradilar. Interaktiv metodlarda o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinishadi va ular, albatta, kichik guruhlarga bo'lingan holda ishlaydilar. Topshiriqlarning kichik guruhdagi barcha o'quvchilarga berilishi ularda jamoa tuyg'usini shakllantiradi.

XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan konstruktivizm deb atalmish pedagogik yo'nalish bevosita interfaol usullarning yuzaga kelishiga ilmiy-nazariy asos bo'ldi. Konstruktivizm keyingi yillarda jahon pedagogika ilmida ham nazariy qarash, ham amaliy yo'nalish sifatida keng yoyildi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri davom etib kelayotgan pedagogik amaliyot birov birovni o'qita olmasligini ko'rsatdi. Agar o'qituvchi o'quvchilarni o'qita olganda, u dars bergan guruhdagi barcha o'quvchilar bir xil o'zlashtirgan bo'lishardi. Holbuki, ta'lim tarixida barcha o'quvchilari bir xilda o'zlashtirgan o'qituvchi bo'lgan emas. Ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchi o'zicha o'qiydi va u erishadigan natija ham uning o'qish darajasiga mos bo'ladi. Konstruktivistik falsafa shvetsariyalik mashhur faylasuf va pedagog Jan Piaje, zamonaviy amerika pedagogikasining otasi sanalmish Djon Dyui, taniqli rus psixologi L.S.Vigotskiy, amerikalik psixolog Benjamin Blum kabi olimlarning ta'limni tashkil etish

6 Rajabova I. Kasb-hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari. Ped.fan.nomzodi...diss. -T.: 2011.

7 Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198.



psixologiyasi, pedagogikasi va falsafasiga doir qarashlari asosida yuzaga kelgan⁸. Ushbu pedagogik yo'nalish negizida Jan Piajening: *"...bola o'z intellektining quruvchisidir"*, – degan fikri yotadi. Konstruktivizm ta'lim jarayonida o'quvchiga bilim emas, balki bilim egallash yo'lida mustaqil harakat qilishi imkoniyati berilishi lozim deb hisoblaydi.

Konstruktivizm pedagogikasi uchun o'quv haqiqatiga erishish jarayoni haqiqatning o'zidan ko'ra ahamiyatliroq. Shu sababli interfaol metodlarda *"erishilgan didaktik natijadan ko'ra, unga kelish yo'li, o'quvchilarning bu kechimdagi izlanishlari, tashabbus ko'rsatishlari muhim"* sanaladi. Interfaolusulatbiqetilganda, ta'lim jarayoni o'qitishdan emas, balki irgalikda'qishdan iborat bo'ladi. Shu sababli ham muallim dars beruvchidan o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi va maslahatchiga aylanadi. Interfaol usulda amalga oshirilgan ta'lim jarayonida o'quvchi o'qitish kechimining ijrochisiga aylanib, erishiladigan didaktik natija uchun o'qituvchi bilan baravar javobgar bo'ladi.⁹

8 Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модул 1. – Т.: 2007.

9 Йўлдошев Қ. Глобаллашаётган дунё ва ўқитишнинг интерфаол усуллари. // Халқ таълими. 2007. 6-сон.



References:

1. Дьюи Д. Образование и демократия. –М.: 2000.
2. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры. Психология человеческой судьбы. –М.: 1988.
3. Занько С. Ф. и др. Игра и ученье. –М.: 1992.
4. Игры для интенсивного обучения / Под ред. В. В. Петрусинского. -Москва: «Прометей», 1991; Игры – обучение, тренинг, досуг... / Под ред. В. В. Петрусинского. – М.: «Прометей», 1994.
5. Казаков А. Н., Якушев А. О. Логика-1 Парадоксология. Пособие для учащихся ст. классов лицеев, колледжей и гимназий. –М.: АО «Аспект Пресс», 1994. -256 с.
6. Rajabova I. Kasb-hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari.Ped.fan.nomzodi...diss. -Т.: 2011.
7. Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198.
8. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модул 1. –Т.: 2007.
9. Йўлдошев Қ. Глобаллашаётган дунё ва ўқитишнинг интерфаол усуллари. // Халқ таълими. 2007. 6-сон.